

# TERMIZ SHAHRIDA “UCH AVLOD UCHRASHUVI” BO‘LIB O‘TDI.



TERMIZ SHAHRIDA “UCH AVLOD UCHRASHUVI” BO‘LIB O‘TDI.

Bugun shahrimizdagi “Muhtasham saroy” tantanalar saroyida navbatdagi “Uch avlod uchrashuvi” bo‘lib o‘tdi. Unda, “O‘zbekiston qahramoni” unvoni sohibi, davlat va jamoat arboblari, turli sohalarda fidokorona mehnat qilib, el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan nuroniylar, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faol yoshlar hamda probatsiya va profilaktik hisobda turuvchi yoshlar ishtirok etishdi.

Turli millat vakillarini mushtarak maqsad yo‘lida bir davraga jam qilgan tadbir doirasida tantanalar saroyida bayram dasturxonini yozildi. Ishtirokchilar to‘kin dasturxon atrofida dildan suhbat qurishdi. Samimiy muloqotlarda nuroniylar va o‘rta avlod vakillari tomonidan mamlakatimizda inson va uning qadr-qimmatini yuksaltirish, xalqimizning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish ustuvor vazifaga aylangani ta‘kidlandi.

Tadbirida shahar hokimi O'ktam To'rayev so'zga chiqib, shahrimizda amalga oshirilgan ijobiy o'zgarishlar va mahallalar infratuzilmasini yanada rivojlantirish yo'lida Termiz shahriga alohida e'tibor qaratilganligi xususida so'z yuritdi. Shuningdek, shahar rahbari barchani yurt ravnaqi yo'lida birdamlikka chorladi.

El suygan san'atkorlarning Ona Vatan, do'stlik, ezgulik, hamjihatlik, mehr-muhabbat va tinch-totuv hayot tarannum etilgan kuy-qo'shiqlari barcha bilan yuqori kayfiyatda uchirildi. Tadbir yakunida nuroniylar mamlakat tinchligi va ravnaqi hamda xalqimiz farovonligini tilab, duoga qo'l ochishdi.







